Qoloq yoki endi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun JSTga a’zo bo‘lib kirish bir tomonlama xorijiy mamlakatlardan import mahsulotlarining milliy bozorlarni egallab olinishini kuchaytiradi. Noraqobatbardosh mahalliy ishlab chiqarish kasodga uchraydi, uning mahsulotlari joylardagi bozorlardan siqib chiqariladi va tashqi bozorlarga qaramligi keskin ortadi. Valyutani chetga chiqib ketishi ehtimolining kuchayishi sababli milliy valyuta qadrsizlanishi ortadi. Buning uchun milliy xizmatlar sohasi va uning innovatsion yo‘nalishlarini davlat va xususiy kapital asosida qo‘llab-quvvatlanishi, raqobatbardosh milliy xizmatlar, milliy mahsulotlar ishlab chiqarishni va ularning xorijiy bozorlarga hech qanday to‘siqlarsiz eksportini rag‘batlantirish, milliy xizmatlar va mahsulotlar reklamasining keng yo‘lga qo‘yilishi va, eng muhimi, qulay investitsion muhit yaratish, ular uchun mamlakat jozibadorligini orttirish bosh strategik maqsadlar hisoblanadi.

JST tashkilotiga a’zo mamlakatlar soni 164, kuzatuvchilar soni 23 (shu jumladan, O‘zbekiston) tani tashkil qiladi. Tashkilotga a’zolik rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda ham taraqqiy topgan davlatlar bilan teng huquqda savdo muzokaralarida ishtirok etish va muammolar yuzasidan murojaat qilish huquqini beradi. Bu jarayon esa mazkur mamlakatlarga ba’zida qisqa, ko‘p hollarda o‘rta va uzoq muddatda teng huquqli va samarali savdo munosabatlari asosida iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi (1-rasm).




1-rasm. JSTning mamlakatlarni a’zolikka qabul qilish tamoyillari [5].

Mamlakatimiz uchun xizmatlar va xizmatlar xalqaro savdosi rivojlanishiga JSTga a'zo bo'lishning ahamiyati ham yuqori bo'lib, uning rivojlanishiga bir qator imkoniyatlar yaratib beradi. JSTga a'zolik rivojlangan, rivojlanayotgan, qoloq mamlakatlar va sobiq ittifoq davlatlari iqtisodiyotiga qanday ta'sir qildi va boshqa shunga o'xshash masalalarni tahlil qilish talab qilinadi.

JSTga a'zolik har bir qatnashchiga turli ichki yoki tashqi guruhlarning bosimi ta'siri emas, balki tashkilot nizomiga muvofiq o'zining to'g'ri iqtisodiy siyosatni olib borishda yordam beradi[6]. Mamlakat o'zlari ishlab chiqqan tashkilotga a'zolik dasturining qanchalik mukammalliligiga, to'g'ri yo'lga qo'yilgan iqtisodiy tizimga egaligiga va boshqa ko'plab omillarga qarab, ko'plab manfaatlarga va o'ziga yarasha bir qator salbiy tomonlari ham mavjudligini e'tiborda tutish lozim.

Ko'p hollarda rivojlangan mamlakatlar o'zlarida yangi tashkil qilinayotgan va yangi rivojlanayotgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli shakldagi tarif va cheklovlardan foydalanishadi. Kemridj universiteti professori Ha Jun Chang JSTning qoidalarini faqat rivojlangan mamlakat uchun ekanligini o'zlari yuqoriga chiqishda foydalangan narvonni boshqalar chiqayotganda itarib yuborishga o'xshatish bilan qiyoslaydi[7]. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishini sekinlashtiradi. Jahonda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar ko'pincha ikki tomonlama yoki ma'lum bir guruh davlatlar o'rtasidagi shartnomalar evaziga ko'proq rivojlanmoqda [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida mamlakatimizning xalqaro, mintaqaviy hamkorlik tashkilotlariga a'zoligining ahamiyati bo'yicha tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha JSTga a'zolikning quyidagi mamlakat iqtisodiyoti uchun manfaatli hamda salbiy tomonlari mavjud (1-jadval).

1-jadval. JSTga a'zolikning manfaatli va salbiy jihatlari

| A'zolikning manfaatli tomonilari | A'zolikning salbiy tomonilari |
|---|---|
| Tariflarni bosqichma-bosqich pasaytirish orqali erkin savdoni rivojlantirishni ta'minlaydi | JSTning hamma a'zolariga bir xil qoidalar qo'llashiga qaramay, ko'pchilik tashkilotning olib boradigan siyosatini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun har doim mos kelmasligi. |
| Savdo nizolari bilan bog'liq muzokaralarni huquqiy asoslar bilan ta'minlash. Bu esa savdo-sotiqda yanada barqarorlikni va oldindan aniq bir adolatli yechim yoki xulosa qilishga yordam beradi. | JST Transatlantik savdo va investitsiyalar bo'yicha AQSH va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi shartnoma ta'siri ostida boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, BRIKS, YEOII davlatlariga qarshi yashirin aks ta'sirga ega. |
| Tomonlarning savdoda teng huquqliligini va turli ko'rinishdagi savdo imtiyozlariga ega bo'lishini ta'minlaydi. | TMKlarning kirib kelishi natijasida monopoliyaning vujudga kelishi mumkin. |
| Aholining kambag'al qatlamlari arzon tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. | JST ba'zi sohalarda, jumladan agrar sohada katta miqdordagi imtiyozli tariflardan foydalanishga imkon beradi. |
| JSTga a'zolik bu-butunlay erkin savdo degani emas. Bu ma'lum bir sharoitlarda, tariflar va savdo cheklovlarini amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, raqobat kurashisiz o'ta arzon mahsulotlarning ortiqcha kirib kelishi yoki tomonlarning "demping" narxlarini qo'llashdan himoya qiladi. | JST intellektual mulkka egalik huquqini juda ham yuqori himoyalashi sababli, inson hayoti uchun zarur bo'lgan dori va shunga o'xshash mahsulot va xizmatlar rivojlangan davlatlar uchun maqbul bo'lsa ham, ulardan kam rivojlangan mamlakatlarda foydalanish qimmatga tushadi. |
| Eksport-import hamda xorijiy va mahalliy investitsiyalarning ortishi natijasida davlat fiskal daromadi va aholi daromadining ortishi. | Endi shakllanayotgan, shuningdek, mahsulot yoki xizmatlarini endi diversifikatsiya qilayotgan sohalar raqobatga chidamasdan, to'xtab qolishi yoki kasodga uchrashi mumkin. |
| Ishlab chiqarishda resurslar, mablag'lar tejamkorligiga erishiladi. | Milliy iqtisodning ayrim tarmoqlari stagnatsiyaga uchrashi mumkin. |
| Turli tarifli va notarif to'siqlarni bartaraf etish orqali bonuslarga ega bo'linadi. | Jahon bozori narxlaridagi tebranishlar ta'siri ichki bozor narxlariga bevosita ta'sir qiladi. |
| Eksport qiluvchilarning xorijdagi savdo faoliyati noqonuniy kamsitishlardan ishonchli himoyalanadi. | Ko'plab arzon tovarlarning xorijdan kirib kelishi natijasida mahalliy korxonalarning raqobatda yutqazishi bilan ularning daromadlari pasayishi. |

| | |
|---|---|
| Boshqa a'zo mamlakatlardan turli shaklda moddiy va maslahatlar olish; | Bojxona munosabatlariga davlat aralashuvining cheklanganligi. |
| JSTga a'zo davlatlar hududidan mollarni boj to'lovlarisiz o'tkazish huquqidan foydalanish. | Mahalliy korxonalarning kasodga uchrashi natijasida, ularning davlat budjetiga tushumi qisqarishi mumkin. |
| Sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida halol raqobat yuzaga keladi. | Rivojlangan davlatlar ta'sir doirasining kengligi. |

*Muallif ishlanmasi

Ushbu tahlillarga asoslangan holda mamlakat xizmatlari xalqaro savdo samaradorligini oshirishga oid quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- erkin savdoning yo'lga qo'yilishi savdoda qatnashayotgan mamlakat fuqarolari, ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko'rsatuvchilari uchun doimo foydali hisoblanadi, ya'ni, ular sifatli mahsulot va xom ashyolarni arzon narxda sotib oladilar. Natijada xalqaro savdo iqtisodiy o'sishga, iqtisodiy samaradorlikning oshishiga, innovatsiyalarning paydo bo'lishiga va, albatta, eksport-import hajmining oshishiga olib keladi;
- chetdan arzon tovar va xizmatlarning kirib kelishi mamlakatdagi inflyatsiya darajasini me'yorlashtiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, har bir kirib kelgan tovar yoki xizmatlarning umumiyga nisbatan 1% dan oshishi narxlar darajasini 2% ga kamaytiradi[9] va bu mablag' aholining cho'ntagida qoladi;
- erkin savdo boshqa bozorlardagi raqobatning ta'siri ostida samaradorlik va innovatsiyaning rivojlanishiga olib keladi va bu ishchi kuchi va kapitaldan unumli foydalanishga, qayta ishlash sanoatining xizmatlar rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib keladi;
- erkin savdoning yo'lga qo'yilishi barcha ishtirokchilarni bir tizimga ishlashiga olib keladi va bu adolatli iqtisodiy munosabatlar o'rnatilishiga, tanish-bilishchilikning yo'qolishiga, lobbizmning keskin kamayishiga va to'g'ri soliq siyosatining qaror topishiga olib keladi.

Barcha ijobiy ham salbiy fikrlarni jamlagan holda, JST, YEOIIga a'zolik aynan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi, bugungi kunda bu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar a'zolikdan nima naf ko'rmoqda, nimalarga erishdilar va boshqa shunga o'xshash xolis va adolatli tahlillar olib borish, avvalambor, mamlakatimizning ularga a'zolikka kirishi tobora yaqin qolayotgan bir paytda oldimizda turgan bu dolzarb masalani to'g'ri hal qilishga asos bo'ladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirining JSTga a'zo bo'lish masalalari bo'yicha maslahatchisi Yovan Yekich "hozirgacha JST faoliyati bilan bog'liq ayrim fikrlar noto'gri talqin qilinishi" [10]ni, ya'ni, tashkilotga a'zo bo'lish bojxona cheklovlarini 100% olib tashlash, yoki mamlakatning tashqi savdoga umuman aralasha olmasligi, shuningdek, mamlakatning o'zi istagan sohalariga umuman subsidiyalar bera olmaslagi va boshqa shunga o'xshash fikrlar borligini ma'lum qiladi. Aslida esa, JSTga a'zo bo'lgandagi tariflar darajasi bu a'zo mamlakat va tashkilot o'rtasidagi muzokaralar va kelishuvlar natijasiga bog'liq bo'ladi. A'zolikka qabul qilinayotgan mamlakat o'zining tariflar bo'yicha takliflarini o'rtaga tashlaydi va o'zaro muzokaralar har ikkala tomonlarni qiziqtiruvchi aniq tovar pozitsiyalari bo'yicha olib boriladi. Ya'ni, mamlakat o'zlari uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar (O'zbekiston uchun tekstil mahsulotlari yoki hozirgi kundagi eng og'riqli nuqtalardan biri-mashinasozlik sohasi va shu kabilar) pozitsiyasi bo'yicha aniq bo'lgan tariflarni berishi mumkin va buni JST bir necha yillarga yoki a'zo mamlakatning xalqaro bozorga moslashib olgunicha hech qanday bosim o'tkazmaslik shartlari va ayrim masalalarda imtiyozlar berilishini shartnomalarda kiritilishiga erishishi mumkin.

Subsidiyalar bo'yicha esa shuni ta'kidlash mumkinki, JSTga a'zolik tufayli mamlakatning ba'zi sohalaridan tashqari ularni berishga taqiq umuman yo'q. O'zbekistondek endi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bunday subsidiyalar YAIMning 10% idan oshmasligi bo'yicha ayrim cheklovlar mavjud. Masalan, ta'lim sohasi yoki tadqiqotlar uchun cheklov umuman yo'q. Mamlakatimizda eng ko'p subsidiya ajratiladigan sektor qishloq xo'jaligi sohasi bo'lib, unda subsidiyalar hajmi YAIMning kichik ulushiga teng va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo'lgan fermerlar va dehqon xo'jaliklariga o'z mahsulotlarini eksport qilish va tarmoqda agro-klasterlarning tashkil qilinishi subsidiyalar miqdorini yanada sezilarli miqdorda kamayishiga olib keladi. Sanoat sohasiga subsidiyalar berilishiga taqiq qo'yilishi esa dastlabki yillarda yangi tashkil qilingan sanoat korxonalari yoki nomigagina bankrotlik holatida ishlab turgan korxonalar faoliyatiga zarba bo'lishi mumkin, lekin bu ma'lum muddat o'tib, mamlakatimiz sanoati rivojiga turtki bo'ladi. Masalan, Urganch yog'-moy MCHJning monopol faoliyati bilan bog'liq birgina misol. Yillar davomida aholining paxta moyiga bo'lgan o'ta yuqori talabidan kelib chiqib, mahsulotini sifatli qilib chiqarish imkoniyati bo'la turib, ichki bozorlarni sifatsiz mahsulotlar bilan ta'minlamoqda. O'zbekistonning JSTga a'zolikka qabul qilinishi bilan bozorlarimizga sifatli mahsulotlar nisbatan erkin kirib keladi va yuqoridagi kabi monopol korxona va tashkilotlar milliy mahsulotlarimiz sifatini oshirishga va boshqa xorijiy korxonalar mahsulotlari bilan raqobatga kirishishga majbur bo'ladi.

JSTning xalqaro maslahatchisi janob Yurgen Rixter "Shuni nazarda tutish zarurki, JSTga a'zo bo'lish, tom ma'noda ichki islohotni o'tkazish vositasidir. Hukumatning JSTga a'zo bo'lish haqidagi talabnomasi uning chuqur islohotlarni o'tkazishga tayyorligidan darak beradi va bu savdo siyosatining doirasidan chiquvchi ichki

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

tizimli islohotlarning faollashtiruvchi hamda jadallashtiruvchi mexanizmi boʻla olishi mumkin. Qoidaga binoan, JSTga qoʻshilish yanada kengroq tizimli islohotlar paketining sababi emas, balki uning tarkibiy qismi boʻlib hisoblanadi", deb fikr bildirgan[11].

YEIning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi rahbari, elchi Eduards Stiprays "Oʻylaymanki, Oʻzbekiston ertami-kechmi JSTga a'zo boʻlib kiradi. Bu a'zolik qancha barvaqt boʻlsa, shuncha yaxshi. YEI boshqa xalqaro hamkorlar bilan bir safda nafaqat muzokaralar oʻtkazish, balki JSTga a'zolikdan keyingi jarayonlarga tayyorgarlikka ham koʻmaklashadi", "Oʻzbekiston yaqin vaqtgacha ichki bozor bilan cheklanib qolgani sir emas. Mamlakatingiz birlamchi va chuqurlashtirilgan qayta ishlashga tayanib eksport bozorlariga chiqishga shayligini bildirayotgan bugungi kunda JST tamoyillariga hamnafaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'bir joiz boʻlsa, ular yangi bozorlarga yoʻl ochadi", deb fikr bildirgan[12].

Shuningdek, AQSH, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar mutaxassislari ham Oʻzbekistonning JSTga tezroq a'zo boʻlishiga koʻmaklashishlarini va bu har tomonlama foydali ekanligini bildirib oʻtganlar.

JST tomonidan xalqaro xizmatlar savdosini erkinlashtirishga qaratilgan siyosati 1990–2005-yillarda ta'lim xizmatlari bozorining keskin oʻsishiga turtki boʻldi. Bu esa dunyo boʻylab xalqaro talabalar sonining eksponent oʻsishiga olib keldi[13] va bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

Ayni paytda sobiq ittifoq davlatlaridan 12 tasi ushbu xalqaro tashkilotga kirgan boʻlib, faqatgina Oʻzbekiston, Turkmaniston va Ozarboyjon hali a'zo boʻlganicha yoʻq. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga JSTning ijobiy yoki salbiy tomonlarini tahlil qiladigan boʻlsak, bizdan koʻra iqtisodiyoti kam rivojlangan Tojikiston va Qirgʻiziston iqtisodiyoti JSTga kirishdan oz boʻlsada foyda koʻrganligini yoki koʻpchilik sohalarda oʻzgarishsiz qolganganligi, Estoniya qishloq xoʻjaligi sohasiga esa katta zarar olib kelganligini, qolgan barcha mamlakatlar esa faqatgina naf koʻrganligini tahlillardan bilib olish mumkin. Biroq, bu imkoniyatlardan barcha a'zolar ham birdek foydalana olishi oson masala emas, albatta. Buning uchun muayyan bir davlatda ishlab chiqarish, tabiiy resurslar, iqtisodiy oʻsish boʻlmasa, xalqaro bozorda oʻz oʻrnini topish boʻyicha mukammal strategiya yaratilmasa, oʻzgarish ham boʻlmaydi, a'zolikning badali ham katta naf keltirmaydi yoki mamlakat uchun iqtisodiy zararga olib kelishi mumkin.

Demak, Oʻzbekiston ham a'zolikka kirishdan oldin bozor mexanizmlarini rivojlantirish, xususiy sektorga koʻproq imkoniyat yaratish, qoʻshilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilish boʻyicha samarali choralar izlab topishi kerak. Faqat bir xil xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar emas, balki, koʻproq tovarlar va xizmatlar eksportini yoʻlga qoʻyish, tizimli islohotlarning amalda bajarilishi va ular natijalariga asosan, ta'sirchan va strategik ahamiyatga molik tovarlar yoki sohalar boʻyicha aniq xulosalar qabul qilishi kerak boʻladi. Shuningdek, JSTga a'zolik muzokaralarida milliy iqtisodiyot va uning ustuvor tarmoqlari va sohalari manfaatlarini t'minlashga qaratilgan imkoniyatlarga erishilishi lozim boʻladi. Shuningdek, tovar va xizmatlarning eksporti va importi boʻyicha aniq asoslarga ega tariflar, turli darajadagi toʻsiqlar va boshqa cheklovlarni batafsil aniqlab olish, axborotni yanada erkinlashtirish, moliya va bank sektori hamda sugʻurta sohasini va boshqa koʻplab investorlar uchun qulaylik yaratish bilan bogʻliq xizmat turlarini tezroq rivojlantirish talab qilinadi.

Shunday tartib qoidalarga asosan mamlakatimizning JSTga a'zo boʻlib kirishi milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni oʻstirish, bozor islohotlarini davom ettirish, milliy iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda yordam berishi mumkin. Bunday platformadagi a'zolik xizmatlar sohasini yanada yuksaltirish, innovatsion yoʻnalishlarni jadal rivojlantirish dunyo miqyosida integratsiyalashuv imkoniyatlaridan unumli foydalanishni osonlashtiradi. Shuningdek, a'zolik koʻproq rivojlanayotgan mamlakatlarga xos boʻlgan yashirin iqtisodiyot, korrupsiya holatlarini pasaytiradi va iqtisodiyotni demokratik va erkin rivojlanishiga katta imkoniyatlar ham yaratib beradi.

Bugungi mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan yana bir dolzarb masala bu – Oʻzbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga toʻliq a'zo boʻlib kirishi milliy iqtisodiyotimiz manfaatlari uchun qanchalik xizmat qilishini xolis asoslashda boʻlmoqda. 2014-yilning 29-mayida Rossiya, Qozogʻiston va Belarus tomonidan imzolangan shartnoma asosida 2015-yil 1-yanvardan oʻz faoliyatini boshlagan YEOIIga a'zolikning ijobiy va salbiy jihatlari boʻyicha mamlakatimizning siyosiy partiyalari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ekspertlari hamda iqtisodchi va siyosatchi olimlar tomonidan tur xil fikrlar bildirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi vaqtida YEOIIga a'zo boʻlib kirish bilan bogʻliq munosabatlar haqida toʻxtalib, "Biz, albatta, ushbu jiddiy masalada, eng avvalo, xalqimizning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning xohish-irodasiga tayanamiz" [14], deb ta'kidladilar.

"Adolat" SDP fraksiyasi deputatlari ittifoqqa a'zolikning migratsiya, energetika, turizm sohalarida, xalqaro yuk hamda yoʻlovchi tashuvlarini soddalashtirishda va tashqi savdo aylanmasi ortishida keng imkoniyatlar ochishini ijobiy baholaganlar. Shu bilan birga, mamlakat sanoati (avtomobilsozlik, oziq-ovqat, farmatsevtika va boshqa) 2 milliard AQSH dollari atrofida yoʻqotishga uchrashini, a'zo davlatlar tashqi savdo siyosatini yetarlicha mustaqil muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega emasligini, oldindan belgilangan qoidalar orqali boshqariladigan va nizolar kelishilgan qoidalarga koʻra hal eta oladigan tashkilotga hali aylanib ulugurmaganligi hamda ittifoq iqtisodiy potensialining salkam 85 foizini tashkil etuvchi Rossiyaning hozirgi kunda xalqaro sanksiyalar ostida ekanligini salbiy omil sifatida baholab, hozircha faqat kuzatuvchi davlat sifatida kirishini ma'qullaganlar[15].

XDP fraksiyasi deputatlari ittifoqqa a’zolikning migratsiya, migrantlarning ijtimoiy himoyasi, transport va qishloq xo‘jaligi sohalarida hamda xalqaro yuk tashish xarajatlarini qisqartirishda ijobiy ahamiyatini ochib berganlar. Salbiy jihatlari sifatida esa ko‘pchilik sanoat korxonalarining inqirozga uchrashi va ishsizlik ortishi mumkinligini inobatga olib, hozircha faqat kuzatuvchi davlat sifatida kirishi to‘g‘ri bo‘lishini aytmoqdalar[16].

“Milliy tiklanish” partiya fraksiyasi a’zolari hozirgi sharoitda O‘zbekistonni YEOIIga nafaqat a’zo, balki kuzatuvchi bo‘lishga ham tayyor emas, deb hisoblaydilar. Buni ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida malakali milliy kadrlarni yo‘qotishga olib kelishi, yagona boj tarifi 6 mingga yaqin tovarlarda boj stavkalarini o‘zgartirilishiga sabab bo‘lishi, ittifoqda amalda bo‘lgan 48 ta texnik reglamentdan 29 tasi mamlakatda umuman mavjud emasligi hamda dunyo iqtisodiyotiga jiddiy zarba bo‘lishi kutilayotgan pandemiyadan keyingi davrning qanday tus olishi noma’lumligi oqibatida milliy iqtisodiyotga jiddiy talofat yetishi mumkinligi bilan izohlaganlar[17].

Iqtisodchilardan professor N.Jumayev O‘zbekiston uchun YEOIIga a’zo bo‘lishida ittifoqning iqtisodiy tashkilot ekanligini, unga a’zo mamlakatlar suverenitetiga salbiy ta’sir qilmasligi, davlatlarning biri tomonidan boshqasiga hatto iqtisodiy tazyiq o‘tkazilishi mumkin emasligi aniqligini va tashkilotning asosiy maqsadi o‘zaro manfaatdorlikka qaratilganligi sababli, unga a’zo bo‘lmaslikni emas, balki qo‘shilishni muhokama qilish lozim ekanligi haqda ijobiy fikr bildirgan[10].

Professor O.Olimjonov YEOII a’zolari bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Armaniston davlatlarining umumiy maydoni 20,3 million kvadrat kilometrni tashkil etadi, aholisi 186 million kishi, YAIM hajmi 1,9 trillion AQSH dollariga tengligini, YEOII YAIM hajmi jihatidan juda katta bozor va bu bozorning teng huquqli a’zosi bo‘lish rivojlanib kelayotgan O‘zbekistonga ulkan imkoniyatlar yaratib berishini ta’kidlaydi[10].

Professor M.Pardayev esa agar O‘zbekiston YEOIIga a’zo bo‘ladigan bo‘lsa, biznes uchun raqobat kuchayadi va bu sharoitda ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, xomashyo bazasining kengayishi natijasida korxonalar to‘liq quvvat bilan ishlaydi, biz uchun muhim bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ortishi ro‘y beradi. Bu holatda jamiyatimiz uchun ham katta manfaat bo‘ladi. Bu aholining turmush farovonligi, hayot darajasi va sifatining oshishiga olib keladi[10], deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, a’zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy to‘siqlar olib tashlansa, savdo va boshqa iqtisodiy munosabatlar erkin rivojlantirilsa, shu davlatlar o‘rtasidagi bojxona va tariflar muvofiqlashtirilsa, unga a’zo har bir davlat, xususan, O‘zbekiston ham yutadi. Faqat buning uchun tashkilot nizomi to‘liq maqsadiga muvofiq faoliyat yuritilishi talab qilinadi, lekin bunga hamisha ham  amal qilinavermaydi.

Iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish markazi rahbari, iqtisodchi Yu. Yusupov tashqi savdo yo‘lidagi ko‘plab to‘siqlarni kamaytirishi mumkin bo‘lgan har qanday integratsiya tarafdori ekanligini bildirgan. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, YEOIIga qo‘shilish qo‘shilmaslikdan yaxshiroqdir, ammo tashkilot to‘laqonli a’zolarning hamjamiyati emas - unda bitta mamlakat hukmronlik qiladi. Ko‘plab qarorlar ushbu mamlakatning istagiga binoan, siyosiy fikrlarga tayangan holda qabul qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda, oldin JSTga imkon qadar tezroq qo‘shilish lozimligini, so‘ngra YEOII haqida o‘ylash kerak, degan fikrni ilgari suradi[18].

2020-yilning 11-dekabridagi Oliy YEOIIning kengashida, ittifoqqa a’zo mamlakat rahbarlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini berish haqida qaror qabul qilindi.

YEOII maydoni jihatidan dunyoda birinchi, aholi soni bo‘yicha sakkizinchi, YAIM hajmi bo‘yicha esa o‘ninchi o‘rinda hamda mintaqada katta iqtisodiy salohiyatga ega va rivojlanib borayotgan tuzilmadir. Fikrimizcha, mamlakatimizning tashkilot bilan iqtisodiy sherikchiligi o‘ta foydali hisoblanib, 186 million nafarga yaqin iste’molchilar mavjud katta bozor sari kengroq yo‘l ochadi. Nisbatan aholisi ko‘p, lekin bandlik darajasi yuqori bo‘lmagan mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy barqaror rivojlanishi va xavfsizligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, EIHlar XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiyotda eng katta institutsional innovatsiyalardan biri sifatida qayd etilgan. O‘zining jozibadorligi bilan ajralib turuvchi bu hududlarni tashkil etish tajribasini dunyo mamlakatlari misolida ko‘rib chiqish mamlakatimizda nafaqat xizmatlar savdosini, balki umumiy savdo hajmini, ishlab chiqarish hajmini, ishsizlikning kamayishini, yurtimizga bo‘lgan e’tiborning o‘sishini umumiy qilib aytadigan bo‘lsak iqtisodiyotning gullab yashnashiga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi hamda yuqoridagi olim va soha mutaxassislarning fikrlaridan kelib chiqib, mamlakatimizning JST tashkilotiga a’zo bo‘lib kirishini jadallashtirish va bu bilan bog‘liq jarayonlarni soddalashtirish, to‘siqlarni bartaraf qilish iqtisodiyotimiz uchun katta foyda olib keladi.

Shu bilan birga, YOII kabi ittifoqqa a’zolik yuqorida sanab o‘tilgan bir qancha ijobiy samaralarga qaramasdan, ittifoqning eng yirik a’zosi bo‘lgan Rossiyaning sanksiyalar ta’sirida unchalik ham rivojlanib ketmayotganligi, ittifoqning hali to‘liq shakllanib ulgurmagani, a’zo mamlakatlarning boj siyosatida mustaqil qaror qabul qila olmasligi va eng asosiysi, mamlakatimizning jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish yo‘lida qilayotgan jadal

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

harakatlariga to'siq bo'lishi mumkinligini ham inobatga olgan holda mamlakatimizning ittifoq bilan kuzatuvchi maqomida aloqa o'rnatishi hozircha eng to'g'ri iqtisodiy-siyosiy qaror bo'ldi, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Tiefenbrun, Susan (2012), Tax Free Trade Zones Of The World And In The United States, Edward Elgar Publishing. P. 48.
2. "Special Economic Zone (SEZ): Chinese Economics", Encyclopedia Britannica, retrieved September 16, 2016.
3. Cooper W.H. Trade in services: The Doha Development Agenda Negotiations and U.S. Goals. Washington, DC: Congressional Research Services, 2011. P. 23.
4. Feketekuty, Geza. International Trade in Services: An Overview and Blueprint for Negotiations. American Enterprise Institute.Ballinger Publishers. 1988. P. 194.
5. World trade Organisation. Annual Report, 2019.
6. Mattoo, Aaditya and Pierre Sauve, (eds.) (2003), Domestic Regulation and Services Trade Liberalization, Washington, D.C., Oxford University Press for the World Bank. P. 246.
7. Ha-Joon Chang, Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective. London: Anthem Press, 2002. P. 187.
8. Ha-Joon Chang (2007). Bad Samaritans: The Myth of Free Trade and the Secret History of Capitalism. P. 280.
9. Donald J., Nita G. (2018). The Benefits of Free Trade: Addressing Key Myths. Mercatus center. George Mason University. P. 5.
10. xs.uz (Халқ сўзи газетаси расмий сайти)
11. finansist.uz
12. xabar.uz
13. Doren Chadee & Vikash Naidoo, 2009. «Higher educational services exports: sources of growth of Asian students in US and UK,» Service Business, Springer; Pan-Pacific Business Association, vol. 3(2), pages 173-187, June.
14. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. https://president.uz/uz/lists/view/4057
15. adolat.uz (Ўзбекистон "Адолат" социал-демократик партияси расмий сайти).
16. xdp.uz (Ўзбекистон халқ демократик партияси расмий сайти).
17. mt.uz (Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партияси расмий сайти).
18. ced.uz (Иқтисодий ривожланшга кўмаклашиш маркази расмий сайти).

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.